

Baxtiyorova Nozima

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2 – kurs talabasi

Karimov Ulug'bek Nusratovich

Ilmiy rahbar/ supervisor: PhD

ALIXONTO'RA SOG'UNIYNING TURKISTON QAYG'USI ASARI HAQIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada ulug' davlat va din arbobi, buyuk ajdodimiz Alixonto'ra Sog'uniy hazratlarining mashhur "Turkiston qayg'usi" asariga munosabat bildirilgan. Asarning mazmuni va bosh g'oyasini ochib berishga, shuningdek, ushbu asarni yozishdan yozuvchining ko'zlagan maqsadi va uning bugungi kundagi ahamoyati haqida fikr – mulohazalar yuritilgan.

Annotation: In this article, there is a reaction to novel "The grief of Turkestan" by the great state and religious figure, our great ancestor your majesty Alikhontura Soghuniy. Analysis of the main ideas and the writer's purpose from writing this book. In addition, there are opinions about the significance of this book today.

Kalit so'zlar: Turkiston, xonliklar, G'arbiy Turkiston, Sharqiy Turkiston, Uyg'uriston, Xitoy, Rossiya, bolsheviklar, sovetlar, kommunist, Oqposhsho, Alixonto'ra Sog'uniy, Asilxon, xx asr, qatag'on, turma, mustamlaka, vatan, turkistonliklar, o'zbeklar, uyg'urlar qozoqlar, qirg'izlar

Key words: Turkestan, khanates, Eastern Turkestan, Western Turkestan, Uyghuristan, China, Russia, Bolsheviks, the soviets, communism, Alikhantura Soghuniy, Asilkhan, xx century, repression, prison, colony, homeland, Turkestans, Uzbeks, Uyghurs, Kazakhs, Kyrgyzs

Turkiston qayg'usi – Alixonto'ra Shokirxonto'ra o'g'lining tarixga oid asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar 1917 – 1950- yillar mobaynida G'arbiy va Sharqiy Turkistonda sodir bo'lgan voqealarni ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan tomonlarini ochib beradi. Turkiston qayg'usi asari 1966 – 1977- yillarda Toshkentda yoziladi. Asarning birinchi qismi muallifning o'z qo'li bilan 1969- yilda yozib bitirilgan. Ikkinchi qismi esa muallif xohishiga ko'ra o'g'li Asilxon tomonidan 1969- yildan boshlab bir necha yil davomida yozilgan va butun asar holiga keltirilgan.

Ushbu asarda xalqimizning eng qora kunlari bo'lmish, xx asr boshlarida yurtimizning mustabid tuzumga qaram bo'lib qolish sabablari hamda sovetlarning turli xil qing'ir ishlari yoritib berilgan. Shuningdek, muallif ushbu kitobda siyosiy – ma'rifiy qarashlarini ifodalab, eng og'ir qiynoq – mustamlakachilikdan ozod bo'lish yo'llarini ham o'rta taqdim tashlaydi. Muallif yurtimizning qullikka tushib qolishining yagona sababi bu – ilmsizlik hamda jaholat ekanini bot- bot takrorlaydi. Zero, Alixonto'ra Sog'uniy hazratlari aytganidek: "O'tmishdagi tarixini unutib, endigi tarixini tuymagan bir millat qorong'uda qolgan, qo'lida tayog'i yo'q ko'r kishi kabi qayoqqa oyoq qo'yishini bilmaganlikdan dushman yetakchisi keyinidan ketishga majbur bo'ladi". Shu sababli ham zamonasining siyosatiga tushungan, teran fikrlagan Alixonto'ra Sog'uniy hazratlari xalqimizga tarix ilmi suv va havodek zarur ekanligini ich – ichidan his qilib turardi va aynan shu sababdan ham ushbu kitobini yozgan.

Alixonto'ra Sog'uniy ushbu asarida Turkiston xalqlarining qadim tarixidan boshlab o'z davrigacha bo'lgan tarixini yozib o'tadi. Ushbu asarning boshqa tarixiy asarlardan farqi shundaki, muallif bu asarda nafaqat tarixiy voqealar, balkim o'zining hayotini, boshidan o'tgan voqealarni ham hikoya qiladi. Shu sababli ham ushbu asarni biz qisman avtobiografik asar deyishimiz mumkin. Asarda muallif turkistonda paydo bo'lgan ilk davlatlar, arablar bosqini, xorazmshohlar davlati, mo'g'ullar istilosi, Amir Temurning Movarounnahrni mo'g'ullar istilosidan xalos qilishi va Temuriylar davlati, Shayboniyxon va uning Buxoro xonligiga asos solishi va Oqposhshoning Turkistonga bostirib kelishi hamda bolsheviklarning kommunistmga asoslangan davlat qurishi va uning Turkistondagi fojaviy oqibatlarini yoritib bergan. Muallif tarixiy voqealarni yozarkan, ularning har birini tarixiy faktlar asosida haqqoniylik bilan yozgan.

Tarixiy faktlarni shunchaki keltirib o'tmasdan, ularga o'z fikrini bildirib, tarixda qanday xatolarga yo'l qo'yilganligini ham mushohada qilib o'tadi.

Asarning asosiy maqsadi, o'z zamonasining ma'naviyatli kishisi, din arbobi shuningdek siyosatni teran anglagan inson sifatida, sovetlarning kirdikorlarini fosh qilish, ularning kommunizm g'oyasining oqibatlarini boshqalardan ilgari anglab, qolganlarga ham haqiqatni ko'rsatib berish, ularning qanchadan qancha begunoh insonlarning umriga zomin bo'layotganligini avlodlarga yetkazib berishdir. Muallif asarning boshida oxiragacha barcha ko'rguliklar ilmsizlik sabab ekanligini, Turkistondan qudratli davlatning dushman qo'lga tushib, qullikka mahkum bo'lishida birinchi o'rinda jaholat, so'ngra xalq ulug'larining birlashmasligi, dushmanga qarshi bir bo'lib kurashish o'rniga bir-biri bilan tinimsiz urush olib borishi, uch xonlikning bir – birini dushman sifatida ko'rishi sabab bo'lganligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, qadimda qanchadan qancha buyuk zotlarni, daholarni o'stirib voyaga yetkazgan bu buyuk turon zamini jaholat sababli kofirlar qo'lida qullikka qoldi va o'z buyukligini yo'qotdi, milliy an'ana va qadriyatlarini, milliy tilidan ajralib qoldi. Muallif fikriga ko'ra, bu jaholatga muqaddas dinimizning asl mohiyatini tushunmagan chalamullalar, har qanday yangilikka kufr deb qaraydiganlar, dunyoviy ilm olishni taqiqlab, faqat diniy bilim bilan cheklanib qolgan johil kimsalar sabab bo'ldi va ular avlodlar qarg'ishiga mahkumdirlar.

Muallifning aytishicha, u bolsheviklar davlatining g'oyalarini hammadan birinchi bo'lib o'rganishga kirishadi va ularning bu siyosatining qanday oqibatlarga olib kelishini hammadan birinchi bo'lib anglab yetadi. Shu sababli ham muallif masjidlarda ma'ruza qilib oddiy xalqni yaqinlashib kelayotgan balolardan ogohlantirishga harakat qiladi. Lekin o'sha davrda tinimsiz qatag'on o'tkazib, nafaqat o'zbek, balkim qozoq, qirg'iz va boshqa millatlarning ham sal ko'zga ko'ringan, ziyoli kimsalarini yo'q qilayotgan bir paytda, uning bu maqsadini sezib qolgan bolsheviklar uning iziga tushishadi va shundan so'ng muallif hayoti quvg'inda sarson – sargardonlikda kechadi. U sovet askarlaridan qochib tog' – toshlarda juda ham ko'p qiyinchiliklarga duch keladi va afsuski, bir necha marotaba qamalib ham chiqadi. Boshidan qancha qiyinchiliklar o'tishiga qaramasdan iymonida sobit turib, o'z xalqining manfaati uchun harakat qilishdan to'xtamaydi. Oxir – oqibat sovetlar unga o'z vatanida tinchlik berishiga ko'zi yetmagan Alixonto'ra Sog'unuy Sharqiy Turkistonga, ya'ni Uyg'uristonga ming mashaqqatlar bilan qochib boradi. Ming afsuslar bo'lsinki, u yerdagi vaziyat ham G'arbiy Turkistonnikidan deyarli farq qilmasdi. Xitoylar qo'lida qolgan uyg'urlar ham turkistonliklar kabi ilmdan, dindan juda ham uzoqlashib ketgandilar. Bu ham yetmagandek Sovetlar Uyg'uristonga ham o'z tas'irlarini o'tkazishga harakat qilishardi.

Umri davomida juda ham ko'plab qiyin kunlarni boshidan o'tkazishiga qaramasdan har doim iymonida sobit turib, qalbidan Allohni bir daqiqa bo'lsin chiqarmasdan, har doim el – yurt manfaati deb yashagan Sog'unuy hazratlarining turkistonliklarning fojiali tarixiga bag'ishlangan ushbu kitobini har bir "Men O'zbekman" degan inson o'qib chiqishini xohlagan bo'lardim. Negaki, har bir millat o'z tarixini, milliy qadriyatlarini, milliy tilini nafaqat bilmog'i, balkim ko'z qorachig'idek asramog'i lozimdir. Yo'qsa u millat yer yuzidan butunlay yo'q bo'lib ketgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Turkiston qayg'usi" Alixonto'ra Sog'unuy, Toshkent – 2021
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/alixontora-sogunuy-turkiston-qaygusi.html>
3. Adabiyotshunoslik nazariyasi X.Umarov : Oliy o'quv yurtlari uchun darslik T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 264 b
4. Dilmurod Quronov, Zokirjon mamajonov, Mahhura Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati / f.f.d Dilmurod quronovning umumiy tahriri ostida. Toshkent: Akademnashr, 2010 – yil – 400 b.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/aldanganga-ko-rsatilgan-haqiqat-yohud-alixonto-ra-sog-unuyning-temur-tuzuklari-tarjimai-tarixi-va-uning-o-zbek-xalqi-uchun/viewer>